



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 5-dekabr

№ 2074

Sudyalar oliy kengashining Tashkiliy-nazorat va axborot-tahlil shu'basi faoliyatini tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-noyabrdagi "Sudyalar hamjamiyati organlari faoliyatining samaradorligi va ochiqqligini oshirish hamda sud mustaqilligi kafolatlarini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-227-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunining 7, 17-moddalariga muvofiq, Kengash

Q A R O R Q I L A D I :

1. O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi raisining 2025-yil 28-noyabrdagi 83-sonli buyrug'i bilan Sudyalar oliy kengashining Tashkiliy-nazorat va axborot-tahlil shu'basi tashkil etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagi Kengash sudyalari Tashkiliy-nazorat va axborot-tahlil shu'basi tarkibiga saylansin:

Xamrayev Alisher Shonazarovich – Shu'ba rahbari;

Ziganshina Guzal Ravilevna – Shu'ba a'zosi.

3. Sudyalar oliy kengashining Tashkiliy-nazorat va axborot-tahlil shu'basi to'g'risidagi Nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov

*Sudyalar oliy kengashining
2025 yil 5 dekabrda
2074-sonli qarori bilan
tasdiqlangan*

Tashkiliy-nazorat va axborot-tahlil shu'basini to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashining (bundan buyon matnda Kengash deb yuritiladi) Tashkiliy-nazorat va axborot-tahlil shu'basini (bundan buyon matnda shu'ba deb yuritiladi) vazifa va funksiyalari, huquqlari hamda javobgarligi asoslarini belgilaydi.

2. Shu'ba o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Sudlar to'g'risida"gi hamda "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunlari, boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, Sudyalar oliy kengashi qarorlari, Kengash raisining buyruqlari, farmoyishlari hamda mazkur Nizom asosida tashkil etadi.

3. Shu'ba bevosita Sudyalar oliy kengashi raisiga bo'ysunadi.

2-bob. Shu'baning vazifalari va funksiyalari

4. Quyidagilar shu'baning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) ishlarni tashkil etish va ijro intizomi sohasida:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyishlari va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Kengash ish rejalarini (tadbirlar, dasturlar, yo'l xaritalari va boshqalar) hamda rahbariyat topshiriqlarining tarkibiy tuzilmalar va mas'ul xodimlar tomonidan o'z vaqtida ijro etilishini nazorat qilish;

"Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimida qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyishlari va topshiriqlarining Kengash tomonidan ijrosi bo'yicha nazorat va hisobdorlikni tashkil etish;

qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar o'z vaqtida bajarilishi va natijasi bo'yicha ma'lumotlarni "Ijro.gov.uz" tizimiga to'liq va haqqoniy kiritilishini nazoratga olish;

ijro intizomiga rioya qilinishi ustidan kunlik nazorat va monitoringni amalga oshirish;

Kengash ish rejalarini tuzishda ishtirok etish, ularning ijrosi bo'yicha Kengash yig'ilishida ma'ruza qilish, Kengash raisiga axborotlar kiritish, shuningdek mazkur yo'nalishda ijro intizomini ta'minlash va nazorat qilish;

qonunchilik hujjatlari, topshiriqlar va ish rejalarining ijrosini to'liq va belgilangan muddatlarda ta'minlash maqsadida har bir band, mas'ul ijrochi va ijro etish muddati alohida ko'rsatilgan nazorat rejalarini tayyorlash, rahbariyatga

tasdiqlatish va ijroga qaratish, uning ijrosini ta'minlashni mas'ul ijrochilardan talab qilish, tekshirish, tahlil qilish va Kengash raisiga axborot berish;

ijro intizomi ahvoli yuzasidan Kengash raisiga axborot taqdim etib borish va ijrosi ta'minlangan hujjatlarni nazoratdan olish, ularning muddatlarini uzaytirish yoki doimiy nazoratga olish choralarini amalga oshirish;

ijro intizomiga rioya qilinishi bo'yicha Kengash raisi huzurida tezkor yig'ilish o'tkazilishini tashkillashtirish, mazkur yo'nalish yuzasidan batafsil tahliliy materiallar tayyorlash;

har hafta juma kuni kelgusi haftada va har oyning 25-sanasiga qadar kelgusi oyda bajarilishi lozim bo'lgan topshiriqlar to'g'risida Kengash raisini xabardor qilish;

Kengash qarori hamda Kengash raisining buyruq va farmoyishlariga asosan tuzilgan ishchi guruh (komissiya)larning ish faoliyatini nazorat qilish;

ijro intizomini nazorat qilib borish hisobiga faoliyatdagi mavjud kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, ularni bartaraf etishning ta'sirchan va samarali mexanizmlarini amaliyotga joriy etib borish;

ijro intizomida kamchiliklarga yo'l qo'ygan xodimlarga intizomiy jazo qo'llash bo'yicha Kengash raisiga takliflar kiritish;

topshiriqlar ijrosini nazorat qilishning samarali mexanizmlarini joriy qilish;

ijro intizomini tashkil etish jarayonlarini raqamlashtirish hamda bu jarayonlarga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

ijro intizomida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishda xodimlarga amaliy yordam ko'rsatish, xodimlar uchun tizimli ravishda o'quv seminarlari hamda mashg'ulotlarini tashkil etish;

ijro intizomi to'g'risidagi tegishli ma'lumotlarni Kengashning veb-saytiga joylashtirib, har oyda ma'lumotlarni yangilab borish;

Kengash matbuot kotibi bilan har chorakda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti hujjatlari ijrosi holati bo'yicha keng jamoatchilikka hisobot berishi uchun Kengash raisiga axborot tayyorlab borish;

v) axborot-tahlil sohasida:

Sudyalarning malaka hay'atlari tomonidan taqdim qilingan hisobotlarni tahlil qilish;

Sudyalarga nisbatan intizomiy javobgarlik to'g'risidagi ish materiallarini o'rganish;

Kengashning yillik faoliyatiga oid Axborotnoma tayyorlash.

5. Shu'ba o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

hujjatlar va topshiriqlarning bajarilishini nazorat qiladi;

qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlarining O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari farmoyishlari va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlarining Kengash tomonidan o'z vaqtida bajarilishini nazorat qiladi va bu haqda "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimiga belgilangan shakldagi ma'lumotlar kiritilishini ta'minlaydi;

Kengash rahbariyatiga muntazam ravishda ijro intizomiga oid faoliyat yuzasidan tahliliy ma'lumotlar taqdim etadi;

hujjatlar va topshiriqlar bajarilishini hisobga olish, nazorat qilish yagona tizimini takomillashtirish hamda ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

Kengash ish rejasining ishlab chiqilishida ishtirok etadi;

Kengash rahbariyati huzurida o'tkaziladigan tezkor majlislar o'tkazilishini tashkillashtiradi, yig'ilish yakunlari bo'yicha tasdiqlangan bayonnomalar ijrosini nazorat qiladi;

o'z vakolatlari doirasida boshqa vazifa va funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Shu'baning huquq va majburiyatlari

6. Shu'ba o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Kengashning boshqa tarkibiy tuzilmalaridan shu'ba vakolatlariga taalluqli masalalarni tahlil qilish hamda tayyorlash uchun zarur material va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rab olish;

hujjatlar va topshiriqlar bajarilishini hisobga olish hamda nazorat qilishning yagona tizimini takomillashtirish masalalari bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

shu'ba oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun Sudyalarning malaka hay'atlarida rejaga muvofiq va rejadan tashqari tashkil etiladigan o'rganishlarda ishtirok etish;

shu'baning zarur materiallar, ma'lumotlar va boshqa hujjatlar taqdim etish bo'yicha talablari, agar Kengash rahbariyati topshiriqlarida bajarishning muddatlari belgilanmagan bo'lsa, tarkibiy tuzilmalar tomonidan shu'ba belgilagan muddatlarda bajarishni talab qilish;

faoliyatga tegishli axborotlar va ma'lumotlarni noto'g'ri foydalanilishi hamda talqin qilinishining oldini olish;

ijro intizomi masalalarida boshqa davlat organlari va muassasalari bilan hamkorlik qilish;

shu'ba qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Ijro intizomiga mas'ul xodimlarga funksional majburiyati bilan bog'liq bo'lmagan vazifalar yuklatilishiga yo'l qo'yilmaydi.

4-bob. Yakunlovchi qoida

7. Mazkur Nizom talablarini buzgan, shuningdek Nizomda belgilangan shu'baning asosiy vazifalari va funksiyalarini lozim darajada bajarmagan va (yoki) sifatsiz bajargan xodimlar belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.